

2-MODUL. NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI KAMSITISH (DISKRIMINATSIYA) HOLATLARINI ANIQLASH VA HUQUQIY TAHLIL QILISH METODI

Modul doirasidagi asosiy masalalar

- 1. Nogironligi bo'lgan shaxslarni to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita kamsitish (diskriminatsiya qilish) tushunchasi*
- 2. Nogironligi bo'lgan shaxslarni kamsitish holatlarini aniqlash usullari*
- 3. Nogironligi bo'lgan shaxslarni kamsitishga barham berish yo'llari*

1-§. Nogironligi bo'lgan shaxslarni to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita kamsitish (diskriminatsiya qilish) tushunchasi

Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish masalasida eng markaziy tushuncha — bu kamsitish (diskriminatsiya)dir. Chunki inson huquqlari buzilishining ko'p hollari aynan kamsitishning ko'rinishlari sifatida namoyon bo'ladi. BMTning 2006-yilda qabul qilingan “Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya”si (CRPD) nogironlikka doir kamsitishni aniq belgilab berib, uning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita shakllarini, shuningdek oqilona moslashtirish rad etilishini diskriminatsiya sifatida e'tirof etgan. O'zbekistonning “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonunida ham Konvensiyadagi mazkur yondashuv to'liq aks etgan bo'lib, nogironlar huquqlarining buzilishi ko'pincha yashirin, tizimli yoki ochiq shakllarda sodir bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi. Mazkur matnda kamsitishning ikki asosiy turi — to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita diskriminatsiya mazmuni, belgilarining farqi va amaliy misollar keng yoritiladi.

To'g'ridan-to'g'ri kamsitish (direct discrimination) — shaxsga nisbatan aynan uning nogironligi sababli boshqalardan yomonroq munosabatda bo'lish, huquqlarni cheklash, xizmatdan bosh tortish yoki biror faoliyatda ishtirok etish imkoniyatini rad etish holatidir. Bunda nogironlik belgisining o'zi asosiy sabab bo'lib xizmat qiladi. Masalan, eshitish qobiliyati cheklangan shaxsni ishga qabul qilishdan: “Siz nogiron ekansiz, shuning uchun

biz sizni ololmaymiz” deb rad etish to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsitishdir. Yoki jamoat transportiga nogiron aravachasi bilan chiqishga ruxsat bermaslik, davlat xizmatlari idorasiga kirishga pandus yo‘qligi sabab shaxsni binoga kiritmaslik kabi holatlar ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri diskriminatsiyadir. Bu holatlarda kamsitish sabab va oqibat jihatidan aniq ko‘rinadi: nogironligi bo‘lgan shaxs boshqalar bilan teng ravishda huquqdan foydalana olmaydi.

Nogironlarni **bilvosita kamsitish (indirect discrimination)** esa ko‘proq yashirin, tizimli va qoidalar orqali amalga oshadi. Bu holatda kamsitish qoidalar, me‘yorlar, talablar yoki amaliyot orqali yuzaga keladi, ya‘ni tashqi tomondan neytral yoki barcha uchun tengdek ko‘ringan talab aslida nogironlar uchun amalda salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, barcha xodimlardan “tez yozish va eshitish vositalarisiz yig‘ilishda faol qatnashish” talab qilinishi eshitish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bilvosita diskriminatsiya bo‘lishi mumkin. Yoki davlat xizmatidan foydalanish faqat onlayn platforma orqali amalga oshirilishi, biroq platformada ko‘zi ojizlar uchun ovozli o‘qish funksiyasi mavjud bo‘lmasa, bu ham bilvosita kamsitishdir. Aslida qoidaning o‘zi nogironlarga qarshi ochiq ko‘rinmaydi, ammo amalda ular uchun imkonsizlik tug‘diradi.

CRPD kamsitishning barcha shakllarini taqiqlaydi va davlatlardan nogironlarni teng huquqli subyekt sifatida tan olishni, ularni jamiyatning barcha sohalarida ishtirok etishini ta‘minlash uchun zarur choralarni ko‘rishni talab qiladi. O‘zbekiston qonunchiligi ham aynan shu modelga tayangan: **“Nogironligi bo‘lgan shaxslarni kamsitish har qanday shaklda taqiqlanadi”** — deyiladi qonunda. Yana bir muhim nuqta: Konvensiya va xalqaro huquq amaliyotida oqilona moslashtirishdan asossiz bosh tortish ham diskriminatsiya hisoblanadi. Masalan, ko‘zi ojiz talabaga dars materiallarini Braille alifbosida taqdim etishni rad etish yoki nogiron aravachasidagi shaxsga mos kirish yo‘lagi yaratishni istamaslik — bu ham kamsitishdir. Chunki oqilona

moslashtirish nogironlar uchun teng imkoniyat yaratishning asosiy vositasi hisoblanadi.

To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita diskriminatsiya o'rtasidagi farqni chuqur tushunish nogironlar huquqlarini real himoya qilishda juda muhim. To'g'ridan-to'g'ri kamsitishda shaxs o'zining nogironligi tufayli bevosita huquqdan mahrum bo'ladi, ya'ni diskriminatsiya ochiq va bevosita sodir bo'ladi. Bilvosita kamsitishda esa tashqi tomondan tengdek ko'ringan tartib yoki siyosat amalda nogironlar uchun salbiy oqibatga ega bo'ladi. Bunday holatlarni ko'pincha aniqlash qiyin bo'ladi, chunki kamsitish yashirin shaklda sodir bo'ladi. Masalan, binoda lift mavjud bo'lsa-yu, lekin liftning tugmalari ko'zi ojizlar uchun ovozli belgilanmagan bo'lsa, yoki lift juda tor bo'lgani uchun aravacha bilan sig'maslik holati — hammasi bilvosita kamsitish turiga kiradi.

Kamsitishning ikki turi ham nogironlarning asosiy huquqlarini buzadi: ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash, transport, davlat xizmatlari, siyosiy ishtirok, axborotga kirish kabi sohalarda nogironlar teng imkoniyatdan mahrum bo'lishi mumkin. Bunday holatlar jamiyatdagi tenglik tamoyillarini buzadi va nogironlarning ijtimoiy integratsiyasiga katta to'sqinlik qiladi.

Nogironlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarida diskriminatsiyani aniqlash va isbotlash — juda murakkab jarayon. Chunki bilvosita kamsitishda niyat emas, oqibat asosiy mezon bo'ladi. Agar siyosat yoki amaliyot nogironlar uchun boshqa guruhlarga nisbatan salbiyroq natija keltirsa, bu kamsitish hisoblanadi. Shu sababli xalqaro tashkilotlar, masalan, Yevropa Inson huquqlari sudi, BMTning Nogironlar huquqlari qo'mitasi bilvosita diskriminatsiyani aniqlashda "disproporsional ta'sir testi"ni qo'llaydi. Bu test shaxsning nogironligi sababli biror qoidaning unga nisbatan nohaq va asossiz og'irlik yuklashini aniqlaydi.

O'zbekiston amaliyotida ham diskriminatsiya holatlariga oid murojaatlar ko'payib bormoqda. Ombudsman hisobotlarida nogironlar tomonidan ta'limga qabul qilish, davlat xizmatlari binosiga kirish, tibbiy xizmatdan foydalanish,

bandlikka oid murojaatlar asosiy o'rin tutadi. Ko'plab holatlarda kamsitish yashirin bo'ladi: masalan, ish beruvchi "sizning salomatligingizga mos ish yo'q" deb bilvosita rad javobi beradi, aslida esa aravacha uchun mos sharoit yaratishdan qochadi. Bu — oqilona moslashtirishni bermaslik orqali kamsitish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, nogironligini bo'lgan shaxslarni to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita kamsitish huquqning eng ko'p buziladigan, lekin ko'pincha eng kam tan olinadigan shaklidir. To'g'ridan-to'g'ri diskriminatsiya ochiq va bevosita bo'lsa, bilvosita diskriminatsiya ko'proq tizimli, qoidalar orqali yuzaga keladi. Har ikkisi ham insonning asosiy huquqlarini buzadi va ijtimoiy tenglikka jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli nogironlar huquqlarini himoya qilishda nafaqat to'g'ridan-to'g'ri kamsitishni, balki qoidalaridagi yashirin, struktural va tizimli kamsitishlarni ham aniqlash va oldini olish nihoyatda muhimdir.

2-§. Nogironligi bo'lgan shaxslarni kamsitish holatlarini aniqlash usullari

Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish tizimida kamsitish holatlarini o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Diskriminatsiya ko'pincha murakkab shaklda namoyon bo'ladi va uni aniqlash uchun maxsus usullar va yondashuvlar zarur. Zamonaviy huquqiy amaliyotda kamsitish holatlarini aniqlashning bir necha asosiy usullari qo'llaniladi va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Quyidagilar kamsitish holatlarini aniqlashning muhim usullari hisoblanadi:

- ✓ **Ta'sirga asoslangan tahlil (effect-based analysis)**
- ✓ **Taqqoslama tahlil (comparative test)**
- ✓ **Me'yor va amaliyot mosligini tahlil qilish (norm-practice consistency test)**
- ✓ **Oqilona moslashtirish testi (reasonable accommodation test)**

- ✓ **Disproporsional ta'sir testi (disparate impact analysis)**
- ✓ **Jarayonni tekshirish usuli (procedural fairness test)**
- ✓ **Kontekstual tahlil (context-based assessment)**
- ✓ **Bevosita guvohlik va dalillar tahlili**

Ta'sirga asoslangan tahlil (effect-based analysis). Kamsitishni aniqlashda eng asosiy usullardan biri — bu **“ta'sirni tahlil qilish”** metodidir. Bu usulga ko'ra, qaror, qoida yoki amaliyotning shaxsga yoki guruhga qanday oqibat keltirganiga qaraladi. Ya'ni, niyat emas, natija asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. CRPD qo'mitasi ko'plab mamlakatlarga bergan tavsiyalarida aynan shu yondashuvni asosiy metod sifatida tavsiya qilgan. Masalan, agar davlat xizmatlari portali faqat matnli interfeysga ega bo'lsa va ko'zi ojizlar uchun ovozli o'qish funksiyasi bo'lmasa, portalning niyati kamsitish bo'lmasligi mumkin, lekin oqibatda ko'rish imkoniyati cheklangan shaxs davlat xizmatidan foydalana olmaydi. Bu bilvosita diskriminatsiya sifatida aniqlanadi.

Taqqoslama tahlil (comparative test). Bu usulda ikki shaxs yoki shaxslar guruhining holati taqqoslanadi: nogironligi bo'lgan shaxs va nogironligi bo'lmagan aniq cheklash mavjud bo'lsa, kamsitish holati yuzaga kelgan bo'ladi. Masalan, agar davlat test markazida barcha abituriyentlar uchun 90 daqiqa vaqt berilsa, lekin intellektual nogironligi bo'lgan shaxs uchun qo'shimcha vaqt taqdim etilmasa, taqqoslama tahlil orqali aniq ko'rinadi: imkoniyat teng emas. CRPDning 2-moddasiga ko'ra, oqilona moslashtirishni bermaslik — diskriminatsiyadir.

Me'yor va amaliyot mosligini tahlil qilish (norm-practice consistency test). Ko'plab holatlarda huquqiy me'yorlar yaxshi yozilgan bo'ladi, lekin real amaliyot ularga mos kelmaydi. Shuning uchun kamsitishni aniqlashda qonunda berilgan huquqlar bilan amalda mavjud sharoit taqqoslanadi. Masalan, qonunda panduslar mavjud bo'lishi shart deyilgan bo'lsa, ammo amalda davlat xizmatlari markazida pandus mavjud emas – bu

kamsitishdir, chunki amaliyot normaga mos emas. Bu holat Ombudsman monitoringlarida juda ko'p aniqlangan.

Oqilona moslashtirish testi (reasonable accommodation test).

Kamsitishning eng keng tarqalgan shakli — oqilona moslashtirishni bermaslik. Bu test orqali davlat organi, ish beruvchi yoki ta'lim muassasasi shaxsning nogironligi sababli zarur moslashuvni taqdim etmagan yoki rad qilganligi aniqlanadi. Masalan, agar ko'zi ojiz talaba imtihonni ovozli shaklda topshirish imkoniyati so'rasa va oliy o'quv yurti: "Bizda bunday xizmat yo'q" deb rad etsa — bu kamsitishdir. Chunki ovozli test tizimini tashkil etish "imkonsiz" emas va ortiqcha yuk keltirmaydi.

Disproporsional ta'sir testi (disparate impact analysis). Bu usul ayniqsa bilvosita diskriminatsiyani aniqlashda muhim. Yuzaki teng ko'ringan talab yoki qoida nogironlar guruhiga boshqa guruhlarga nisbatan ko'proq zarar yetkazsa, bu kamsitish hisoblanadi. Masalan, "Barcha xodimlar haftasiga 40 soat ofisda ishlashi shart" degan talab nogironligi bo'lgan shaxslar uchun disproportsional zarar keltirishi mumkin, chunki ko'pchilik nogironlar masofadan turib ishlashga muhtoj bo'ladi. Shuning uchun bu talab — bilvosita diskriminatsiya hisoblanadi.

Jarayonni tekshirish usuli (procedural fairness test). Kamsitishni aniqlashda faqat natija emas, balki jarayonning o'zi ham baholanadi. Agar shaxsning arizasi, talabi yoki murojaati ko'rib chiqilmasdan rad etilsa, yoki unga boshqa shaxslar kabi xolis munosabat bildirilmasa — bu kamsitishdir. Masalan, nogironligi bo'lgan shaxs davlat xizmatiga murojaat qilganda, uning navbati ko'rib chiqilmay qoldirilsa yoki unga "Sizning arizangiz ko'rilmaydi" deyishsa — jarayon adolatsiz bo'lgani uchun bu diskriminatsiyadir.

Kontekstual tahlil (context-based assessment). Kamsitishni aniqlashda holat o'z kontekstida baholanishi kerak. Ya'ni, shaxsning imkoniyatlari, hudud infratuzilmasi, mavjud xizmatlar, davlat organlarining majburiyati, ijtimoiy muhit inobatga olinadi. Masalan, Qishloq hududidagi

maktabda nogiron bolaga mos sharoit yo'qligi "hudud sharoiti" bilan izohlanishi mumkin, lekin bu kamsitishni oqlamaydi. Chunki davlatning majburiyati infratuzilmani baribir moslashtirishdir.

Bevosita guvohlik va dalillar tahlili (evidence-based assessment).

Kamsitishni aniqlashda dalillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunga:

- guvohlarning ko'rsatmalari
- audio-video yozuvlar
- hujjatlar
- rasmiy rad xatlari
- internet yozishmalari
- ekspert xulosalari

Masalan, ish beruvchi nogiron shaxsga: "Biz sizni nogironligingiz uchun qabul qila olmaymiz", deb yozma yoki audio shaklda rad javobi bersa — bu to'g'ridan-to'g'ri diskriminatsiya dalilidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, nogironligi bo'lgan shaxslarni kamsitish holatini aniqlash — bu faqat normativ tahlil emas, balki chuqur huquqiy, ijtimoiy va faktologik yondashuv talab qiladigan jarayondir. Kamsitishni aniqlashda yuqoridagi usullar — oqibatni tahlil qilish, taqqoslama, norm-amaliyot mosligi, oqilona moslashtirish testi, disproporsional ta'sir, jarayon adolati va kontekstual tahlil — eng asosiy ilmiy-huquqiy metodlar hisoblanadi. Har bir usul real hayotiy misollar orqali qo'llanilganda, nogiron shaxslar huquqlarining buzilishi aniq va ishonchli tarzda aniqlanadi. Bu esa ularga nisbatan huquqiy himoya choralarini ko'rish, davlat siyosatini takomillashtirish va jamiyatda tenglikni ta'minlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

3-§. Nogironligi bo'lgan shaxslarni kamsitishga barham berish yo'llari

Nogironligi bo'lgan shaxslarni kamsitishga barham berish - bu jamiyatning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, u inson huquqlarini himoya qilish, tenglikni ta'minlash va ijtimoiy adolatni o'rnatishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni talab etadi. Bu jarayonda birinchi navbatda, jamiyatda mavjud stereotiplar va noto'g'ri tushunchalarni bartaraf etish kerak, chunki ko'pincha kamsitish nogironlik haqidagi noto'g'ri fikrlardan kelib chiqadi. Masalan, nogironlikni faqat jismoniy cheklov sifatida ko'rish o'rniga, uni ijtimoiy muhitning moslashmaganligi natijasida yuzaga keladigan to'siq sifatida baholash lozim.

Quyida nogiron shaxslarni kamsitishga barham berishning asosiy yo'llari va amaliy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi.

Birinchi va eng muhim yo'l — huquqiy islohotlar va normativ bazani mustahkamlash. Qonunlarda nogiron shaxslarni himoya qilishning aniq va qat'iy normalar bo'lishi kamsitishga qarshi kurashning poydevoridir. O'zbekiston Konstitutsiyasining 46-moddasi nogironlarni davlat himoyasida ekanligini belgilaydi, 48-moddada esa kamsitish taqiqlangan. Biroq qonuniy kafolatlarga barham berish uchun, ular amalda ishlashi zarur. Masalan, nogiron aravachasi uchun pandus qurilmagan davlat xizmatlari markazi qonun talabini buzadi. Bunday hollarda davlat organlari javobgarligi aniq belgilanishi — kamsitishning asosiy profilaktik choralaridan biridir. Konvensiya talabiga ko'ra, oqilona moslashtirishni bermaslik ham kamsitish hisoblanadi. Shuning uchun qonunda “oqilona moslashtirish”ni taqdim etishni rad etgan tashkilotlarga nisbatan ma'muriy yoki moliyaviy javobgarlik belgilash, amaliy jihatdan diskriminatsiyaga barham beradi.

Ikkinchi yo'l — infratuzilmani to'siqlardan xoli qilish. Ko'plab kamsitishlar bevosita salbiy niyat tufayli emas, balki moslashtirilmagan muhit natijasida yuzaga keladi. Transport vositalari, davlat binolari, ta'lim muassasalari, shifoxonalar, jamoat joylari mos bo'lmaganda, nogiron shaxslarning erkin harakatlanish huquqi buziladi. Panduslar, keng eshiklar,

liftlar, taktil yo'laklar, ovozli signalizatsiya tizimlari, mos hojatxonalar — bular nafaqat ijtimoiy qulaylik, balki kamsitishga barham berishning eng asosiy vositalaridir. Masalan, O'zbekistonning ayrim viloyatlarida metro bekatlarida ovozli navigatsiya joriy etilishi ko'zi ojizlarning mustaqil harakatlanishida kamsitishni kamaytirgan. Yoki Toshkent shahridagi bir nechta davlat maktablarida "inklyuziv sinf"lar tashkil etilgani — ta'limda bilvosita diskriminatsiyani kamaytirgan amaliy misollardir.

Uchinchi yo'l — oqilona moslashtirishni ta'minlash. Bu nogiron shaxsning ehtiyojiga mos sharoit yaratishdir. Oqilona moslashtirishni taqdim etish kamsitishning oldini oladi, uni bermaslik esa Konvensiyaga ko'ra diskriminatsiyadir. Amalda bu quyidagicha ko'rinadi: ko'zi ojiz talaba dars materialini Braille alifbosida olishni so'rasa, ta'lim muassasasi materialni mos shaklda taqdim etishi shart; kar farzandi bor ota-ona uchun maktab yig'ilishida ishora tilida tarjimon bo'lishi kerak; nogiron aravachasida yurgan xodim uchun ish joyi mos balandlikda bo'lishi lozim. Bu oddiy, ammo kamsitishga barham beruvchi kuchli mexanizmdir.

To'rtinchi yo'l — ta'lim va axborotga teng kirishni ta'minlash. Nogironlar ko'pincha ma'lumot yetishmasligi yoki mosaxborot vositalarining yo'qligi sababli kamsitiladi. Masalan, davlat xizmatlari portali ko'zi ojizlar uchun ovozli o'qish funksiyasiga ega bo'lmasa, bu axborotdan foydalanish huquqining buzilishidir. Kamsitishga barham berish uchun barcha axborot platformalarida "universal dizayn" tamoyiliga rioya qilinishi zarur. Ko'plab mamlakatlarda davlat saytlarida Braille PDFlar, ovozli matnlar, katta shriftlar va video subtitrlar mavjud — bu diskriminatsiyani kamaytiruvchi eng muhim vositalardir. O'zbekistonda davlat xizmatlarida subtitrlash amaliyoti boshlangan bo'lsa-da, uni kengaytirish zarur.

Beshinchi yo'l — vakolatli organlar faoliyatini kuchaytirish. Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz (IHMM), sudlar va ijtimoiy himoya tizimi diskriminatsiyani aniqlash va unga barham berishda

muhim rol o'ynaydi. Ombuds-man 2023-yilda nogironlar huquqlari bo'yicha 13% murojaat aynan kamsitishga oid bo'lganini bildirgan. Bu murojaatlarni samarali ko'rib chiqish, tavsiyalar berish va monitoring o'tkazish — kamsitishga barham berishning institutsional yo'li. Bundan tashqari, sudlarda diskriminatsiya bo'yicha da'volarni oddiylashtirilgan tartibda ko'rish, dalillarni qabul qilish mezonlarini yumshatish, nogironlar uchun bepul advokat ta'minlash kabi mexanizmlar ham diskriminatsiyani kamaytiradi.

Oltinchi yo'l — jamiyat ongini o'zgartirish va stigma bilan kurashish.

Kamsitishning katta qismi ijtimoiy stereotiplar natijasida yuzaga keladi. Nogironlarni “yordamga muhtoj”, “faoliyatga yaroqsiz”, “to'la huquqli emas” deb qarash — bu madaniy diskriminatsiyaning ko'rinishidir. Bunga barham berish uchun targ'ibot materiallari, ijtimoiy roliklar, maktab dasturlarida inklyuziv ta'lim, OAVda nogironlarni “voqealarning faol ishtirokchisi” sifatida tasvirlash juda muhim. Masalan, Janubiy Koreya nogironlar ishtirokidagi teleko'rsatuvlarni ko'paytirish orqali jamiyat ongini o'zgartirgan; Yevropa Ittifoqida esa reklamalarda nogiron modellarni qatnashishi odatiy holga aylangan. O'zbekistonda ham bunday yondashuvlar joriy etilsa, diskriminatsiya sezilarli kamayadi.

Yettinchi yo'l — inklyuziv siyosatni joriy etish. Kamsitishga barham berish uchun davlat siyosati nogironlarni faqat “himoyaga muhtoj guruh” sifatida emas, balki “jamiyatning teng huquqli a'zosi” sifatida ko'rishi kerak. Inklyuziv siyosatning asosiy tamoyili — “Hech narsa bizsiz qilinmasin” (Nothing about us without us). Ya'ni nogiron shaxslar siyosiy qaror qabul qilish jarayoniga bevosita jalb etilishi lozim. Masalan, O'zbekistonda nogironlar tashkilotlari (DPOs) parlament eshituvlarida, davlat komissiyalarida va monitoring jarayonlarida ishtirok etishi diskriminatsiyaning oldini oladi. Ular mavjud muammolarni ichidan ko'rib, davlat idoralariga aniq tavsiyalar berishi mumkin.

Sakkizinchi yo'l — strategik litigatsiya (pretsedent ishlar) orqali tizimli diskriminatsiyani tugatish. Bunda nogironlar huquqlari buzilgan muhim holatlar sudga olib chiqiladi va sudning qarori boshqa shunga o'xshash ishlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Masalan, bir fuqaro davlat binosida pandus yo'qligi sabab xizmatdan foydalana olmagan holatni sudga olib chiqsa va sud uning foydasiga qaror chiqarsa, bu yurt bo'ylab barcha xizmat ko'rsatish muassasalariga pandus o'rnatish talabini kuchaytiradi. Bu diskriminatsiyani katta miqyosda kamaytiradi.

To'qqizinchi yo'l — muqobil nizolarni hal qilish (ADR). Ba'zan kamsitish holati sudgacha borish shart bo'lmaydi. Mediasiya, muzokara, kelishuv va vositachilik yordamida diskriminatsiya tezda hal qilinishi mumkin. Masalan, nogiron xodim ish sharoitini moslashtirishni so'raganda ish beruvchi rad etsa, mediasiya orqali tomonlar dialogga kirishib, mos yechim topish — kamsitishni bartaraf etadi.

Xulosa qilib aytganda, nogiron shaxslarni kamsitishga barham berish — ko'p darajali, tizimli va uzluksiz jarayondir. Qonunchilik, infratuzilma, oqilona moslashtirish, ijtimoiy ong, institutlar faoliyati, advokasiya va strategik sud amaliyoti — bularning barchasi diskriminatsiyani tugatish vositalaridir. Bu yo'llarni uyg'un qo'llash orqali nogiron shaxslar jamiyatning to'laqonli, teng huquqli a'zolariga aylanishlari ta'minlanadi. Shu bilan birga, nogiron shaxslarning huquqlarini himoya qilishda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi samarali hamkorlik katta ahamiyatga ega. Davlat organlari qonunlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va nazorat qilishda faol bo'lishi, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoatchilik esa ularning ijrosini kuzatib borish hamda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishda faol ishtirok etishi zarur. Shuningdek, nogironlar uchun inklyuziv muhit yaratish — bu nafaqat huquqiy kafolatlar, balki jamiyatning barcha sohalarida imkoniyatlarning tengligi, to'siqsiz foydalanish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni anglatadi. Ta'limdan tortib ish joyigacha, sog'liqni saqlashdan

ijtimoiy xizmatlargacha barcha sohalarda nogiron shaxslarning ehtiyojlari hisobga olinishi, ular uchun qulay va imkoniyatli sharoitlar yaratilishi lozim.